

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO‘LLANILGAN ARABIY ISH QUROLI NOMLARI

Jo‘rayev Jamoliddin Aminjonovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Аннотация. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan ish qurollari nomlariga oid arabcha so‘zlar tahlil qilingan. Ulardan shoirning badiiy niyati bilan bog‘liq holda turli xil lug‘aviy va uslubiy-semantik funksiyalarni bajarilganligini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: bolg‘a, egov, pichoq, qalam, satr, qaychi, tarozi, milliy, chiroq, so‘z, shaxs.

Аннотация. В этой статье обзревается арабские слова имена инструментов который использовал Алишер Наваи в своих произведениях. Из них можно увидеть как использовал поэт разные слова и методическо-семантический функции для художественных целей.

Ключевые слова: молоток, подпилоч, нож, карандаш, черта, ножница, национальный, лампа, слово, личность.

Abstract . In this articl the Arabic words is analized whaich to the nameds of tools used in the works of Alisher Navoi. From them it can be seen thet various lexsical and stylistic-semantic funcions were performed in connection with the poet’s artistic intention.

Keywords: hammer, file, knife, pen, line, scissors, scales, national, lamp, word, person.

So‘ngti yillarda Alisher Navoiy asarlarini matniy, falsafiy, lisoniy va badiiy jihatdan o‘rganish bo‘yicha bir qancha ishlar qilingan bo‘lsa-da, shoir ijodining uslubiy o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi lingvistik omillarni tadqiq etish endigina

boshlandi. Chunonchi, shoir asarlaridagi ish qurolli nomlari bevosita badiiy uslub bilan bog‘liq holda o‘rganish navoiyshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, Alisher Navoiyning so‘z qo‘llash san‘atini teran tadqiq etishning keng imkoniyatlarini ochadi.

Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning asarlari nafaqat badiiy, balki mislsiz ma’naviy, lisoniy boylik hamdir. Bu boylikning tarkibiy qismlarida ish qurollari va asboblarga oid so‘zlar ham mavjud. Ma’lumki, ish qurollari va asbob nomlari arab tili grammatikasi qoidasida مفعّل “mif’al”, مفعلة “mif’alat”, مفعّال “mif’ol” qolipidan hosil qilinadi. Masalan, aslida “baroda”-egovlamoq fe’lini “mif’al” qolipida aytilsa “mibrad”-egov so‘zi yasaladi yoki “taroqa”-taqillatmoq fe’lini “mif’alat” vaznida aytilsa “mitraqat” - bolg‘a so‘zi yasaladi. Alisher Navoiy g‘azallarida ham ana shunday qolipda yasalgan ish qurollari nomlari ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin.

Royihai jannati a’lo ham ul,

Partavi misbohi tajallo ham ul .

روِيحَةُ جَنَّتِ اَعْلَى هَمِ اَوَّلِ،

پرتاوی مصباح تجلّو هم اول

Baytidagi مصباح “misboh” aslida “sabaha”- tongda kelmoq, ertalab turmoq fe’lidan olingan bo‘lib, bu yerda chiroq ma’nosini bildiradi.

La’ling ul o’tki, ko’ngul mijmar anga,

Yo ko’ngul durju labing gavhar anga .

لعلینگ اُول اُتکی، کُنْگُلِ مِجْمَرِ اَنگَه،

یا کُنْگُلِ دُرْجِ و لَبینگ گَوهر اَنگَه

Baytdagi مِجْمَر “mijmar” – “jammara” fe’lidan olingan bo‘lib, yonib turgan ko‘mir cho‘g‘ida qovurish ma’nosini bildiradi. “Mijmar”– manqal, manqaldon, kabob qo‘ra, tutatqi solinadigan idish, isiriqdon kabi ma’nolarini bildiradi.

Orazing husnin fuzun qilg‘an hiloliy qosh erur,

Yoxud ul oy sham’ini yorutqali minqosh erur .

اوزازینگ حُسْنین فوزون قیلغان هِلالی قاش آرور،

ياخود آل آى شمعيلى يوروتقالى مىناقش آرور

Bu baytdagi مىناقش “minqosh”- “naqasha” o‘ymakorlik usuli bilan naqsh solmoq fe’lidan olingan bo‘lib, “minqosh” esa naqqoshning keskichisi, kesish (yo‘nish) asbobi; haykaltarosh qalami; tosh bolta, tosh pichoq kabi ish quroli ma’nolarni bildiradi.

Bo‘ldi chu mistar xatig‘a tuz raqam, Boshini olma raqamdin qalam . بولدى

چو مىسطار خَطِیغِه تَز رَقَم،

باشینی أَلَمَس رَقَم دین قَلَم.

Ushbu baytdagi مىسطر “mistar”- “satara” fe’lidan olinib, satr, chiziq chizmoq fe’lidan olinib, baytdagi “mistar” – chizg‘ich ma’nosida.

Jilvai husn o‘lg‘ali zohir anga,

Bo‘ldi bu mir‘ot mazohir anga .

چِلْوِی حُسْن أَلْغَالِی ظَاهِر أَنگِه،

بولدى بو مِرْأَتِ مَظَاهِر أَنگِه.

Baytdagi مىرات “mir‘ot”- “ro‘a” ko‘rmoq, sezmoq, payqamoq, fe’lidan olinib, “mir‘ot”- oyna, ko‘zgu; soflik, tozalik, ko‘ngil kabi majoziy ma’nolarni ham ifodalaydi.

Kamoli qudratingdin xirad ul nav’ bo‘lub lol,

Ki hayratdin hamisha qilib isba’ni misvok .

کَمَالِ قُدْرَتِیَنگْدین خِرَد أَل نَوَع بولوب لال،

کِی حَیْرَتْدین هَمِی شِه قَلِیب اِصْبَاعَنِ مِسْوَاک.

Baytdagi Misvok - “saka” (savk) tozalash, artish fe’lidan olingan. Baytdagi misvok tish tozalaydigan (bo‘yi bir qarich, yo‘g‘onligi barmoqcha, po‘stloqli yog‘och) asbob ma’nosida.

Ikki barmoqki tutar siymni miqroz kibi,

Faqr torin dog‘i qat’ etguchidur ul miqroz .

ایکی برموقکی توتار سیمنی مقراض کییی،

فقر تورن داغی قطع اتگچیدور آل مقراض

Baytdagi مقراض “miqroz”-“qoroza” kesmoq, o‘tkirlamoq, charxlamoq

ma'nolarini anglatuvchi fe'ldan olinib, miqroz bu yerda qaychi ma'nosida kelgan.

Fikrati mizoni bo'lub xamsasanj,

فكراتی میزونی بولوب همساسانج،

“Xamsa” dema, balki degil panj ganj .

همسا» دما، بالکی دگیل پانچ گنج»

Bu baytdagi mizon- “vazana” tarozida o'lchamoq, taqqoslamov fe'lidan olinib, mizon esa tarozi ma'nosini ifodaydi.

Xazina kalidin bu bir kelturub,

Yana qal'a miftohin ul topshurub .

خازینا قالیدن بو بیر کلثروب،

یاننا قالعا میفتوحین ال توبشروب

Baytdagi miftoh – “fataha” ochmoq fe'lidan olingan, “miftoh” esa kalit ma'nosini bildiradi.

Muningdek tiyr ila har bodboni,

مونینگدک تیئر ایلا هر بدبونی،

سیرهری اطلسو میهوار نیشونی

Baytdagi mihvar - aylanadigan narsalarning o'qi, yer o'qi, g'ildirak o'qi, o'zak, mag'iz kabi ma'nolarni bildiradi.

Ket farahkim, g'amni, mehnat toshin olib, ko'ngluma

کت فرحکیم، غمنی، مهنت توشین اولیب، گنگلومه .
یوز تمان مسمور بیرلا استور اتی فراق

Baytdagi mismor-“samora” mixlamov, qoqmoq fe'lidan olinib, mix, qoziq, pona kabi ish qurollari ma'nosini ifodalaydi.

Injuni olsalar mufarrih uchun,

انجونی اولسالار مفرح اوچون،

مینگ بولور بیر دیرامگا بیر میسقول

Baytdagi misqol- “saqala” og'ir bo'lmoq, yuk bo'lib tushmoq fe'lidan olingan, og'irlik o'lchovi (taxminan 4, 68gr) tarozi toshi ma'nosini bildiradi.

Bir kun qalamni mixbaradin chiqardim .

Jumladagi mixbara - xibrun siyox so'zidan olinib bu yerda siyoxdon

ma'nosini ifodalaydi.

Ey Navoiy, topti mutrib sozidin ko'nglum navo,

Go'yiyo jon rishtasig'a tegdi mizrobi aning . ای نواوی، توپتی مُطرب سوزیدن گنگلوم

نوا،

گوییو جون ریشتاسیغا تگدی میضرابی اینینگ

Baytdagi مضراب “mizrob”- “zaraba” urmoq fe'lidan olingan bo'lib, kamoncha, kamon; musiqa cholg'usi kamonchasi; chalg'i (yung titadigan kamalaksimon asbob) ma'nosini bildiradi.

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumikinki, Alisher Navoiy asarlarida ish qurollari nomlariga oid arabiy so'zlarni ko'p qo'llangan bo'lib, ular shoirning badiiy niyati bilan bog'liq holda turli xil lug'aviy-ma'noviy va uslubiy-semantik funksiyalarni bajargan. Badiiy kontekst doirasida qo'llangan har bir ish quroli nomlari muayyan semantik funksiyani ado etuvchi poetik detal hisoblanadi.

Xulosa shuki, buyuk alloma, shoir Hazrat Alisher Navoiy asarlarida ish qurollari nomlari turkiy, forsiy tillar bilan birga arabcha mif'al qolipida ham hosil qilingan. Bunday so'zlarning qo'llanishi shoir asarlari badiiyati, bo'yoqdorligini yanada oshirgan va o'quvchi uchun qiziqarli bo'lishini mukammal ta'minlagan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Иккинчи жилд. Наводир ун-нихоя. Тошкент – 1987.
2. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Учинчи том. Хазойин ул-маоний. Фаройиб ус-сиғар. —Тошкент:.. “Фан”, 1988
3. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Тўртинчи том Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. —Тошкент:.. “Фан”, 1989
4. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Олтинчи том. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. —Тошкент:.. “Фан”, 1990
5. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Еттинчи том. Ҳайратул-аброр. — Тошкент:.. “Фан”, 1991
6. Алишер Навоий. Йигирма томлик. Фарход ва Ширин. —Тошкент:.. “Фан”, 1992